

**HARBIY O'ZLASHMA SOHA SO'ZLARI***Gulzebo Nuraliyeva**DTPI ingliz tili o 'qituvchisi**Sohibjamol Abdullayeva**[abdullayevas05@icloud.com](mailto:abdullayevas05@icloud.com)**+998941437121**DTPI xorijiy til va adabiyoti:**ingliz tili yo 'nalishi talabasi**Nafisa Alimnazarova**[nifisaalimova@gmail.com](mailto:nifisaalimova@gmail.com)**+99897067106**DTPI xorijiy til va adabiyoti:**ingliz tili yo 'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy harbiy sohada qo'llanilayotgan o'zlashma so'zlarining kelib chiqishi, ularning o'zbek tilidagi shakllanishi va ishlatalish holati tahlil qilinadi. Harbiy tilning zamonaviylashuvi va xalqarolashuvi aynan o'zlashma terminlar orqali yuz bermoqda. Maqolada ingliz, rus, arab va boshqa tillardan kirib kelgan harbiy terminlar misollar asosida yoritilib, ularning leksik-semantik moslashuvi va umumxalq tili bilan integratsiyasi o'r ganiladi.

**Kalit so'zlar:** Harbiy terminologiya, o'zlashma so'zlar, inglizcha harbiy atamalar, ruscha terminlar, soha leksikasi, lingvistik moslashuv, sematik o'zgarish.

**Abstract:** This article analyzes the origin, development, and usage of borrowed terms widely used in the modern military sphere. The modernization and internationalization of military language are largely driven by such loanwords. The study presents examples of military terminology borrowed from English, Russian, Arabic, and other languages, and examines their lexical-semantic adaptation and integration into the Uzbek national language.

**Keywords:** Military terminology, loanwords, English military terms, Russian terms, field terms, field lexicon, linguistic adaptation, semantic change.

**Аннотация:** В данной статье анализируется происхождение, формирование и использование заимствованных слов, широко применяемых в современной военной сфере. Модернизация и интернационализация военного языка во многом происходят через такие заимствования. В статье рассматриваются примеры военной терминологии, заимствованной из английского, русского, арабского и других языков, а также их лексико-семантическая адаптация и интеграция в узбекский литературный язык.

**Ключевые слова:** Военная терминология, заимствования, английские военные термины, русские термины, полевая лексика, языковая адаптация, семантическое изменение.

## KIRISH

So‘z boyligi har qanday tilda ijtimoiy va sohalarga qarab shakllanadi. Harbiy soha esa o‘ziga xos, qat’iy va aniqlikni talab qiluvchi terminlarga ega. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng milliy harbiy tizim shakllandi, ammo bu jarayon davomida xorijiy tillardan, ayniqsa rus va ingliz tillaridan ko‘plab so‘zlar kirib keldi. Bu so‘zlearning ba’zilari o‘zbek tiliga to‘liq moslashgan bo‘lsa, ba’zilari hali ham o‘z shaklida ishlatalmoqda. Ushbu maqola ana shunday o‘zlashma harbiy so‘zlarni aniqlash va ularni tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

## METODOLOGIYA

Tadqiqot quyidagi metodlarga tayangan:

- *Lingvistik tahlil:* terminlarning leksik, morfologik va semantik tuzilishini o‘rganish;
- *Tarixiy-etimologik usul:* so‘zlearning qaysi tilga oidligi va qanday tarixiy sharoitda o‘zlashgani aniqlanadi;
- *Taqqoslash:* o‘zbek tilidagi va asl tilidagi shakllar qiyoslab o‘rganiladi;
- *Empirik kuzatuv:* harbiy matnlar, rasmiy buyruqlar, trening materiallari va intervylular asosida material yig‘ildi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zlashma harbiy terminlar tahlilida nazariy va amaliy manbalarni chuqr o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan tayyorlangan “Harbiy atamalar va qisqartmalar lug‘ati” (2022) asosiy soha manbasi sifatida ajralib turadi. Ushbu lug‘at harbiy leksikani zamonaviy standartlarga mos holda tizimlashtirgan bo‘lib, unda inglizcha va ruschadan kirib kelgan yuzlab atamalar o‘zbek tilidagi ekvivalentlari bilan keltirilgan. Shuningdek, rus tilshunosligida o‘zlashma harbiy so‘zlar bo‘yicha olib borilgan fundamental tadqiqotlar, jumladan, A.N. Baranov, V.V. Vinogradov kabi olimlarning ishlari ruscha harbiy terminlarning shakllanishi va semantik xususiyatlarini ochib beradi. Bu manbalar orqali o‘zlashgan so‘zlearning rus tili orqali o‘zbek tiliga ikkilamchi darajada kirib kelish mexanizmi tushuniladi.

Ingliz tilidagi harbiy glossariylar – xususan, NATO terminologiyasi asosida tuzilgan “Multilingual Military Glossary” va AQSH Mudofaa Departamenti tomonidan nashr etilgan “Department of Defense Dictionary of Military and Associated Terms” (2021) – xalqaro miqyosdagi atamalarni izohlashda asosiy metodik vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, O‘zbekistonda o‘zlashma so‘zlar masalasini tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rgangan olimlardan D. Ibragimov, Z. Qosimova va M. Jo‘rayevlarning ishlari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular

o‘zlashma so‘zlarining o‘zbek tilidagi fonetik, semantik va grammatik moslashuvini tahlil qilishgan.

## MUHOKAMA

**O‘zlashma so‘zlar** — kelib chiqishiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajraladi:

**Rus tilidan kirgan harbiy so‘zlar:**

- Komandir (ruscha: командир) – boshliq, rahbar;
- Shtab (ruscha: штаб) – boshqaruv markazi;
- Batalyon (ruscha: батальон) – harbiy birlashma;
- Ofitser (ruscha: офицер) – harbiy unvon egasi;
- Poligon (ruscha: полигон) – sinov hududi.

Ushbu so‘zlar sovet davrida o‘zlashgan bo‘lib, o‘zbek harbiy tizimida hozirga qadar keng qo‘llaniladi.

**Ingliz tilidan kirgan zamonaviy terminlar:**

- Drone (inglizcha: drone) – uchuvchisiz havo qurilmasi;
- Radar (inglizcha: radar) – radioto‘lqinli aniqlagich;
- Target (inglizcha: target) – nishon;
- Cyber attack (inglizcha: cyber attack) – kiberhujum;
- Sniper (inglizcha: sniper) – nishonchi otuvchi.

Bu so‘zlar asosan zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lib, O‘zbekiston harbiy tuzilmalarida inglizcha shaklda ishlatalmoqda. Ayrim hollarda ularning o‘zbekcha muqobillari mavjud bo‘lsa-da (masalan, nishonchi – sniper), lekin sohada inglizcha shakl afzal ko‘rilmoxda.

**Arab tilidan kirgan tarixiy harbiy so‘zlar:**

- Askar (arabcha: ‘askar) – harbiy xizmatchi;
- Jang (arabcha: jang) – kurash, urush;
- Amir – qo‘mondon;
- Lashkar – armiya.

Bu so‘zlar tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, o‘zbek tilining umumxalq qatlami tomonidan qabul qilingan.

O‘zlashma harbiy so‘zlarining o‘zbek tilidagi mavjudligi — bu globallashuv va xalqaro harbiy aloqalarning tabiiy natijasidir. Xususan, ingliz tilidan kirgan terminlar zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog‘liq. Biroq bu holat bir nechta muammolarni yuzaga chiqaradi:

- Terminlarning anglanmasligi: Harbiy soha mutaxassislari o‘zlashtirilmagan atamalarni tushunishsa-da, oddiy fuqarolar ko‘p hollarda mazmunidan bexabar bo‘lishadi.
- Normativ birlikning yo‘qligi: Bir so‘zning bir nechta variantda ishlatalishi (masalan: drone – dron – uchuvchisiz qurilma) tushunmovchilikka olib keladi.

- Mahalliylashtirish zarurati: Ba'zi terminlarga o'zbekcha ekvivalentlar yaratish mumkin (masalan, sniper – nishonchi, target – nishon), ammo bu hali joriy qilinmagan.

Shu sababli, harbiy tilni rasmiylashtirish, yagona terminologik bazani shakllantirish va o'zbekcha muqobilarni faol qo'llash zarurdir. Bu, ayniqsa, harbiy bilimlarni ommalashtirish va fuqarolik jamiyatida harbiy savodxonlikni oshirish uchun muhim.

### **XULOSA**

O'zlashma harbiy soha so'zлari harbiy terminologiyaning boyishi va xalqaro harbiy hamkorlikda samarali muloqotni ta'minlashda muhim o'rinn tutadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ingliz va rus tillaridan o'zlashgan ko'plab atamalar hozirgi kunda O'zbekiston Qurolli Kuchlari tizimida faol qo'llanilib kelinmoqda. Ular orasida fonetik, morfologik va semantik jihatdan o'zlashtirish darajasi har xil bo'lgan birliklar mavjud. Maqolada olib borilgan tahlillar asosida harbiy leksikadagi o'zlashma so'zlar milliy harbiy tildagi yangilanish va zamonaviylashuv jarayonlarining bir qismi ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, ularni me'yoriylashtirish, tizimlashtirish va o'quv jarayonlariga samarali tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Kelgusida harbiy lingvistika doirasida ushbu yo'nalishda chuqurroq tadqiqotlar olib borish va lug'aviy manbalarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. Harbiy atamalar va qisqartmalar lug'ati. Toshkent, 2022.
2. Ibragimov D. O'zlashma so'zlar va ularning lingvistik xususiyatlari. Toshkent, 2020.
3. Karimov N. Zamonaviy harbiy terminologiya asoslari, O'zR Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2019.
4. Military English-Uzbek Glossary, NATO Training Program, 2023.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati, Fan nashriyoti, 2008.